RAQAMLI IQTISODIYOT VA SAVDO HAMKORLIKNI CHUQURLASHTIRISHDA MARKAZIY OSIYONING ROLI

Abduxalimova Fotima Azizjon qizi
O‘zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Siyosatshunoslik yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston misolida raqamli bozorning kengayishi, Jahon bankining "E-GATE" dasturi hamda transchegaraviy logistika va savdo ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mintaqaviy savdoni cheklovchi texnik to‘siqlar, sertifikatsiya jarayonlari va ISO/HACCP standartlarini joriy etish orqali "Made in Central Asia" brendini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, E-GATE, logistika, xalqaro standartlar, raqamli transformatsiya.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida so‘nggi yillarda kuzatilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi, biznes faoliyati va jamiyat rivojlanishining barcha sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va elektron xizmatlarning ommalashuvi natijasida iqtisodiy tizimlarning yangi modeli – raqamli iqtisodiyot shakllanmoqda [9, 15-22, 3]. Global iqtisodiy yuksalishlar hamda ta’minot bog‘lanishlar kesimi sharoitida Markaziy Osiyo nafaqat muhim transit va logistika tuguni, balki jadal yuksalish yo‘lida raqamli bozor siyosatining strategik mavqeyini ham mustahkamlab bormoqda. Zamonaviy davr sharoitida aynan shu mintaqadagi davlatlar (O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston,) milliy iqtisodiyotda ham raqamli texnologiyalar joriy etish va davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish bo‘yicha kompleks va keng qamrovli rejalarni amalga oshirmoqda [4, 12]. Markaziy Osiyoda aholining demografik o‘sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi (aholining 50% dan ortig‘i 30 yoshgacha) va internet hamda mobil aloqaning jadal ommalashuvi mintaqaviy raqamli savdo hamkorligini chuqurlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar poydevorini yaratmoqda.

DOI: 10.5281/zenodo.24284574

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals – BRM) iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ularga erishishda raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Xususan, sifatli ta’lim, munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish, sanoat va innovatsiyalar, samarali institutlar hamda hamkorlikni rivojlantirish kabi maqsadlar raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog‘liqdir[8, 28].

Markaziy Osiyo mamlakatlari ham raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda [5, 6, 134]. Ayniqsa, O‘zbekistonda "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasining qabul qilinishi mamlakatning raqamli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mazkur strategiya davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni raqamlashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan [2].

Asosiy qism. So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va raqamli hukumatning iqtisodiy rivojlanish hamda barqaror taraqqiyotga ta’siri ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish usullari, davlat boshqaruvi mexanizmlari va jamiyatning turli sohalarida yangi imkoniyatlar shakllanmoqda. Shu sababli xalqaro ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional natijalari keng o‘rganilmoqda.

Tadqiqotning axborot bazasini World Bank websiteda joylangan “ From the local bazaars to global markets: Unlocking e-commerce through regional integration in Central Asia” (Mahalliy bozorlardan global marketlargacha: Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya orqali elektron tijoratni rivojlantirish) maqolasi orqali tahlil qilinib, atroflicha o‘rganiladi. Bunda elekron savdo maydonlari, logistic infratuzilmalar va koridorlar tizimi hamda siyosiy islohotlar ko‘lami va mintaqadagi mamlakatlarining bir-biriga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash tizimi haqida batafsil yoritiladi [1].

Mintaqada milliy va transchegaraviy elektron tijorat platformalarining rivojlanishi kichik va o‘rta biznes sub'yektlarining mintaqaviy bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Elektron tijorat Markaziy Osiyo bo‘ylab jadal kengayib, yangi ish o‘rinlari yaratish, fintexni rivojlantirish, eksport hajmini oshirish, logistikani takomillashtirish va umuman iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekistonning elektron tijorat bozori 2018-yildan 2022-yilgacha besh baravarga o‘sib, 2023-yilda 500 million dollardan oshdi [1]. Muallif tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektron tijorat bozorining 2018–2022-yillarda besh baravarga o‘sishi mamlakatda xususiy sektor va fintex xizmatlari

uchun yaratilgan qulay soliq hamda huquqiy muhitning bevosita natijasidir. Bu jarayon nafaqat yirik startaplar ("Uzum" edinorog loyihasi misolida), balki minglab kichik biznes sub'yektlarining ham raqamli bozorga chiqishini ta'minladi. Biroq, ushbu o‘sish ko‘rsatkichlari mintaqa davlatlarida bir tekis kechmayapti. Masalan, Tojikistonda pochta litsenziyalashining murakkabligi hamda Qirg‘izistonda infratuzilma xarajatlarining yuqoriligi milliy bozorlarning yopiq qolishiga sabab bo‘lmoqda. Demak, mintaqaviy o‘sishni ta'minlash uchun har bir mamlakat alohida emas, balki yagona raqamli ekotizim sifatida harakat qilishi zarur. Shunga qaramay, Qirg‘izistonda elektron tijorat hajmi 2028-yilga borib 595 million dollarga yetishi kutilmoqda. Tojikistonda esa "Elektron tijoratni rivojlantirishning 2025–2029-yillarga mo‘ljallangan dasturi"ning yo‘lga qo‘yilishi mahalliy sotuvchilar uchun yanada qulay va istiqbolli imkoniyatlarni va’da qiladigan dadil qadam bo‘ldi [1].

Bundan tashqari, Yevroosiyo qit'asining markazida joylashgan Markaziy Osiyo orqali o‘tuvchi savdo yo‘llarini qog‘ozsiz savdo tizimlariga o‘tkazish tovar muomalasi vaqtini 20-30% ga qisqartirish va chegaralardan o‘tish vaqtini sezilarli darsda tezlashtirish imkonini beradi [1]. Bunda Buyuk Britaniya Tashqi ishlar, Hamdo‘stlik va Rivojlanish Vazirligi (FCDO) tomonidan moliyalashtiriladigan Jahon bankining **E-GATE** dasturi yordamga kelmoqd [4, 18]. Dastur chegara tartib-taomillarini soddalashtirish, logistikani takomillashtirish va kompaniyalarga xalqaro miqyosda kengayishga ko‘maklashish orqali mamlakatlarga transchegaraviy raqamli savdo imkoniyatlarini ochishda ko‘maklashadi. Birgina 2024-yilning o‘zida E-GATE dasturi B2B (biznesdan biznesga) elektron tijorat savdosida 23 million dollardan ortiq o‘sishni ta'minladi [4, 20]. E-GATE dasturi doirasidagi B2B bitimlarining yarmidan ko‘pi aynan mintaqa ichida amalga oshirilgani strategik ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari tashqi bozorlarga chiqishdan oldin o‘zaro ichki savdo salohiyatini to‘liq ishga solishi kerak. 2025-yilning may-iyun oylarida hukumat rasmiylari, tadbirkorlar va rivojlanish bo‘yicha hamkorlar Toshkentda E-GATE dasturi doirasidagi uchta yuqori darajadagi forumlarning birinchisida to‘plandilar. Ushbu forum chuqurroq integratsiya orqali mintaqaning elektron tijorat salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratildi [1].

Shuningdek, mintaqada sertifikatlashtirilgan va standardlashtirilgan sertifikatlar tiziming joriy etilishi yo‘lida keng qamrovli reja va amaliyotlarni sinovdan o‘tkazilmoqda. Negaki, Eksportchilar ko‘pincha sertifikatlash uchun xorijiy laboratoriyalarga tayanadi. Bu qimmat va ko‘p vaqt talab qiladigan jarayon bo‘lib, ko‘plab kichik biznes sub’yektlarini ushbu jarayondan chetda qoldiradi. Qayd etilgan savdo to‘siqlarining 80% dan ortig‘i texnik standartlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, kichik biznes sub'yektlarining xorijiy laboratoriyalarga qaramligi ularning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda. Bunday vaziyatda,

hukumatlar milliy sifat infratuzilmasiga investitsiyalar kiritishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak: mahalliy sertifikatlash organlarini tashkil etish yoki kengaytirish, KOB (kichik va o‘rta biznes) sub’yektlarini ISO yoki HACCP kabi xalqaro standartlarga o‘rgatish va standartlarga moslashish uchun grantlar ajratish zarur. Chegaralar bo‘ylab standartlarni uyg‘unlashtirish, shuningdek, global miqyosda tan olinadigan **"Made in Central Asia"** ("Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan") brendiga yo‘l ochishi mumkin [1].

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo mintaqasi jadal **raqamli sakrash** bo‘sag‘asida turibdi. Mintaqada elektron tijoratning (E-commerce) tezkor o‘sishi, fintex hamda logistika sohalarining rivojlanishi, shuningdek, Toshkent, Bishkek va Dushanbe forumlari hamda **E-GATE** kabi xalqaro dasturlar doirasidagi muloqotlar shunchaki alohida milliy islohotlardan umumiy mintaqaviy kun tartibiga o‘tish boshlanganini anglatadi.

Shu bilan birga, mintaqa mamlakatlari uchun umumiy bo‘lgan bir qator tizimli muammolar – "so‘nggi mil" yetkazib berishdagi qiyinchiliklar, logistika xarajatlarining yuqoriligi, bojxona tartib-taomillarining mukammal emasligi, yashirin iqtisodiyot hamda savdo to‘siqlarining 80% dan ortig‘ini tashkil etuvchi texnik va sertifikatlash standartlaridagi uzilishlar elektron savdo integratsiyasiga to‘sqinlik qilmoqda [1].

Elektron tijorat chegaralarda to‘xtab qolmaydi. Halol raqobatni ta’minlash, xarajatlarni kamaytirish va yetkazib berishni tezlashtirish uchun raqamli savdo, logistika, soliq va bojxona tizimlari butun Markaziy Osiyo bo‘ylab yaxshiroq integratsiyalashgani ma’qul. Bu umumiy chorlov va shu bilan birga umumiy imkoniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon banki hisoboti. *From the local bazaars to global markets: Unlocking e-commerce through regional integration in Central Asia* / World Bank Blogs. 2024. **https://blogs.worldbank.org/en/psd/unlocking-e-commerce-through-regional-integration-in-central-asi** (Murojaat sanasi: 29.10.2026).

2. Mirziyoyev Sh.M. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. –T., 2020-yil 5-oktyabr. **https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf** (Murojaat sanasi: 01.11.2026).

3. Bukht R., Heeks R. Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy // Development Informatics Working Paper. –Manchester: University of Manchester, 2017. –No. 68 –P.12-18.

4. Jahon banki hisoboti. *Central Asia Digital Economy Assessment & Connectivity Program*. – Washington: World Bank Group, 2024. –P. 12-25.

5. World Bank. Digital Development Overview. –Washington, DC: World Data for Better Lives. –Washington, DC: World Bank, 2021. –P. 40-48.

6. International Telecommunication Union (ITU). Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024. – Geneva: ITU, 2024. – P. 134-135.

7. Sustainable Development Solutions Network. Sustainable Development Report 2025. –Dublin: Dublin University Press, 2025. –P. 50-55.

8. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. –New York: United Nations, 2015. -P. 20-30.

9. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. –New York: McGraw-Hill, 1996. –P. 10-25.